# O‘QUV DASTUR PASPORTI

*O‘quv dastur uzluksiz tibbiy va farmatsevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning _2025 yil 14 avgustdagi № IXT-244 sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.*

*Amal qilish muddati 2030 yilgacha*

| | |
|---|---|
| **Ta'lim muassasasi nomi** | Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi |
| **Kafedra/ bo‘lim** | 1 Stomatologiya |
| **O‘quv dastur nomi** | **TERAPEVTIK STOMATOLOGIYA** |
| **O‘qish turi** | Ixtisoslashtirish |
| **O‘quv dastur muallifi/ mualliflari** | A.M.Xaydarov, M.A.Aliyeva, M.N.Alyavi, K.M. Abduyusupova |
| **Siklning umumiy soati** | 864 kredit |

**Siklda dars beradigan o‘qituvchi va trenerlar**

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
|  T.f.d. prof. Xaydarov A.M. |  T.f.n. dotsent Aliyeva M.A. |  Ass. Abduyusupova K.M |  Ass.Alyavi M.N | |

| | |
|---|---|
| **Maqsad** | Terapevtik stomatologiya fanini o‘qitishning asosiy maqsadi – zamonaviy stomatologiya amaliyotida sertifikatsiya va litsenziyalash talablariga javob beruvchi hamda yetarli darajada bilim, amaliy ko‘nikmalar bilan qurollangan yuqori malakali mutaxassis tayyorlashdir. |
| **Siklga taklif qilingan mutaxasisslar - kontingent** | QVP, QOP, QTMP, poliklinika va boshqa tibbiy davlat va nodavlat muassasalarida birlamchi ixtisoslashtirish (6 oy) o‘qiydigan vrach-stomatologlar uchun mo‘ljallangan. |
| **Sikl vazifalari** | 1. Stomatologik kasalliklar epidemiologiyasi, etiologiyasi, patogenezi to‘g‘risidagi bilimlarni zamonaviy darajada rivojlantirish;<br>2. Stomatologik kasalliklarga yon doshib |

| | |
|---|---|
| | keluvchi patologik holatlarni zamonaviy tashxislash usullarini ishlatish bo‘yicha bilimlarni rivojlantirish;<br>3. Terapevtik stomatologiya amaliyotida ishlatiluvchi tashxislash va davolash tadbirlarini yetarli hajmda mustaqil aniqlashni rivojlantirish;<br>4. Terapevt stomatologning kundalik amaliyotida ishlatiluvchi zamonaviy laborator va instrumental tekshirish natijalarini tahlil qilishni o‘rganishni rivojlantirish;<br>5. Shoshilinch holatlarda zamonaviy darajada yuqori malakali yordam ko‘rsatishni rivojlantirish;<br>6. Stomatologik kasallarda ijtimoiy hamda mehnat reabilitatsiya tadbirlar majmuasini o‘tkazish bo‘yicha bilimlarni rivojlantirish;<br>7. Ko‘p tarqalgan stomatologik kasalliklar darajasini pasaytirish hamda oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni o‘rganishni rivojlantirish. |
| **Sikl tarkibi** | Modul 1. Terapevtik stomatologiya xizmatini tashkil qilishda zamonaviy qarashlar<br>Modul 2. Yuz-jag‘ sohasining klinik anatomiyasi<br>Modul 3. Terapevtik stomatologiyasida tekshirish usullari.<br>Modul 4. Terapevtik stomatologiyada og‘riqsizlantirish va intensiv terapiya.<br>Modul 5. Kariesga xos bo'lmagan kasalliklar.<br>Modul 6. Tish kariesi<br>Modul 7. Pulpa kasalliklari<br>Modul 8. Periodont kasalliklari<br>Modul 9. Endododontiya<br>Modul 10. Plomba ashyolari<br>Modul 11. Parodont kasalliklari<br>Modul 12. Og’iz bo’shlig’I shilliq qavati kasalliklari<br>Modul 13. Stomatologiyada fizik usullar bilan tashxis qo‘yish va davolash. |

| | |
|---|---|
| **O‘qish bazalari:**<br>***Asosiy:*** “Shaxar tez tibbiy yordam klinik shifoxonasi”<br>Foziltepa ko‘chasi 40 uy<br><br> | ***Qo‘shimcha:*** “Avistom” ma’suliyati cheklangan jamiyat. Mirzo-Ulug‘bek tumani, Qorasuv 2-13-22<br><br> |